SAMARQAND VILOYATI PAYARIQ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Payariq sh, Samarqand ko‘chasi, 52-uy.

2022 - yil 31 - avgust 228-7-100-Q/22 Payariq tuman hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarni ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olish to‘g‘risida”gi 18-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 25-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarni ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.G‘aniboyev) mazkur qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarni ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi”ga muvofiq ish yuritilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (D.Hamidov) mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi

belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Ollanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Z.Ergashev**